

**MINTAQADA INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH
VA MOLİYALASHTIRISHDA EKONOMETRIK
MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI.**

Boʻriyev Sardor Norovich¹

¹ *Urganch Davlat Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.12.2024

Revised: 18.12.2024

Accepted: 19.12.2024

KALIT SOʻZLAR:

*Investitsiya, moliya,
modellashtirish,
jarayon, hudud,
mamlakat, ish, hajm,
matematika,
ekonometriya, savdo,
respublika, milliy,
bozor, tizim.*

Mintaqa iqtisodiyoti va uning tarmoqlarida modellashtirish mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalarni rivojlantirish va moliyalashtirishda biz albatta ekonometrik modellashtirishga tayanamiz. Ushbu maqolada ham aynan shu yoʻnalish yoritib berishga harakat qilingan.

KIRISH. Har qanday mamlakatda investitsiyalar iqtisodiyotda barqarorligi, bandlikni taʼminlash, iqtisodiy oʻsishga erishish, hududlar barqarorligini boshqarishda asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlardan biridir. Mamlakatimizda soʻngi yillarda Respublikaga investitsiyalarni jalb qilish boʻyicha keng qamrovli investitsion strategiyalar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz iqtisodiyotida roʻy berayotgan jiddiy tarkibiy oʻzgarishlar tashqi iqtisodiy koʻrsatkichlarda oʻzining aniq ifodasini topmoqda. Bu kabi iqtisodiy oʻsishga erishishda, avalambor, keng koʻlamli, tizimli bozor islohotlarini joriy etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilganligi katta ahamiyatga egadir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oʻzgarib turuvchi raqobat muhiti va bozor sharoitlarini ilgʻab olish, ularning mohiyati hamda qonuniyatlarini chuqur tahlil qilishda ekonometrik usullar va modellardan

foydalanish yordamida makroiqtisodiy indikatorlarni prognozlash, ko'p variantli yechimlardan muqobil yechimni tanlash, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida optimal iqtisodiy qarorlar qabul qilish, keyinchalik, bu qarorlar bajarilishini kompyuter orqali monitoring qilish masalalarining nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rivojlanishda ekonometrik modellashtirish iqtisodiyot bo'yicha chuqur fundamental tadqiqotlar olib borishga, iqtisodiy rivojlanish modellarini tuzishga imkon beradi. Milliy iqtisodiyotni yaxlit tizim tarzidagi matematik modellarini yaratish orqali unga tashqi ta'sirlar, jahonda yuz berayotgan inqirozning biznes sikllariga ta'sirini aniqlay oladigan va qarshi choralarni belgilash strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Qo'yilgan muammoni nafaqat analitik ifodalab qolmasdan, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida iqtisodiy jarayonlarning matematik modellarini tuza oladigan, milliy iqtisodiyotdagi tarmoqlar va korxonalarning biznes- jarayonlarini modellashtirishga ko'maklashadi. Iqtisodiyotimizda ekonometrik usullarni qo'llashdan asosiy maqsad ommaviy hodisalar va jarayonlar haqida ularni kuzatish yoki eksperimentlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida xulosalar hosil qilish va ular asosida ekonometrik modellashtirishni tuzishdan iborat Bu statistik xulosalar alohida tajribalarga tegishli bo'lmasdan, balki tadqiq qilinayotgan hodisani keltirib chiqaruvchi shart- sharoitlarning doimiy ekanligi shu hodisaning umumiy tavsiflari haqidagi da'volardan iborat.

Biz ekonometrik usullar yordamida moddiy, mehnat va pul resurslaridan oqilona foydalana olamiz. Shuningdek iqtisodiy va tabiiy fanlarni rivojlantirishda yetakchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ekonometrik modellar yordamida iqtisodiy jarayonlarni faqat chuqur tahlil qilibgina qolmasdan, balki ularning yangi o'rganilmagan qonuniyatlarini ham ochishga imkon yaratamiz. Shu bilan birgalikda ular yordamida iqtisodiyotning kelgusidagi rivojlanishini oldindan aytib berish mumkin. Asosiy ekonometrik usullar – bu matematik statistika usullari va ekonometrik usullardir. Ekonometrik modellashtirish quyidagi ilmiy yo'nalishlar kompleksidir:

- iqtisodiy nazariya;
- ehtimollar nazariyasi;
- matematik statistika;
- kompyuter texnologiyalari.

Iqtisodiy jarayonlarni bajarilishini aniqlovchi, ta'sir o'tkazuvchi asosiy sabablarni ochish va tushunib etish, ularning ta'siri va o'zaro ta'sirni aniqlash - bu tahlil qilinayotgan obyektning xo'jalik faoliyati xususiyatlariga tushunib yetishdir. Tahlil jarayonida xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib va xarakterlanib qolmasdan, balki ularning ta'sir darajasi ham miqdoriy o'lchanadi. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda har qadamda o'zgaruvchi qiymatlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Iqtisodiy o'zgaruvchilar sifat va miqdoriy xususiyatlarga ega bo'lib, bir-biridan funksional bog'lanish ko'rinishida bo'lishi mumkin. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning miqdoriy munosabatlari va funksional bog'lanishlarini o'rganish ekonometrikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy hodisalar va

ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlar hamma vaqt ham funksional ko'rinishda ifodalanishdan yiroq bo'lishi mumkin. Bunday holda ko'pincha korrelyatsiya bog'lanishlari bilan ishlashga to'g'ri keladi, Bunday bog'lanish shunisi bilan xarakterlanadiki, ushbu ko'rsatkichga o'rganilayotgan asosiy omillardan tashqari boshqa, qo'shimcha omillar ham ta'sir ko'rsatadi, ularni ajratish va ko'rsatayotgan ta'siri harakatmi uslubiy ajratish (izolyatsiya) imkoniyati doimo ham bo'lavermaydi. Bunday bog'lanishlar korrelyatsiya va regressiya tahlili yordamida o'rganiladi. Asosiy ekonometrik usullarga quyidagi usullar kiradi:

Matematik statistika usullari. U quyidagi usullarga bo'linadi:

- a) dispersion tahlil;
- b) korrelyatsiya tahlili;
- v) regressiya tahlili;
- g) omilli tahlil;
- d) indekslar nazariyasi.

2. Ekonometrik usullar:

- a) iqtisodiy o'sish nazariyasi;
- b) ishlab chiqarish funksiyasi nazariyasi;
- v) talab va taklif tahlili.

Ekonometrik modellash tirish hozirgi davrda iqtisodiy rivojlanishning matematik usullarini takomillashtirishda, iqtisodiy sikllilikni asoslash, talab va taklif ko'rsatkichlarini hisoblash, talabning o'zgaruvchanlik xususiyatlarini baholash, ishlab chiqarish sarfxarajatlarini va jamg'arish sur'atlari o'zgarishlarini tahlil etish, ishlab chiqarishning tarmoqlararo bog'likdini o'rganishda va boshqalar masalalarni tadqiq va taxlil etishda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А.М., Ходиев Б.Ю., Ишпазаров А.И. Эконометрика: Учебник. – Т.: ТГЭУ. 2007.

2. Беркинов Б.Б. Эконометрика. -Т. Фан ва технология. 2015.

3. Journal of economy and entrepreneurship Экономика и предпринимательство
Приоритеты и перспективы эффективного использования потенциала региона в условиях инновационного развития. № 4 (177) 2025 г. (Vol. 19 Nom. 4)

4. Mukhammadieva Yu.Yu. Evaluation of impact of innovative processes in effective use of regional potential; <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/9849/19145>

5. Bo'riyev N.S образование наука и инновационные идеи в мире "использование зарубежного опыта для повышения инвестиционной привлекательности регионов" <https://scientific-jl.com/obr/article/view/12752>